

**KOMPOZITORLIK TA'LIMIDA UMUMIY FORTEPIANO FANINING O'ZBEK
MILLIY MUSIQA TAFAKKURI BILAN INTEGRATSIYASI: NAZARIY,
METODIK VA IJRO-AMALIY TAMOYILLAR**

Shermat Fayzulloyev

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI,

"Kompazitorlik, bastakorlik va umumiy fortepiano kafedrası" o'qtuvchisi.

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 01.05.2026

Revised: 02.05.2026

Accepted: 03.05.2026

KALIT SO'ZLAR:

*kompozitorlik
ta'limi, umumiy
fortepiano, o'zbek
milliy musiqasi,
maqom, musiqiy
tafakkur, ichki eshituv,
intonatsiya,
improvizatsiya, kichik
kompozitsiya, ijro-
amaliy integratsiya.*

Mazkur maqolada kompozitorlik ta'limida umumiy fortepiano fanining o'rni o'zbek milliy musiqafafakkuri bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etiladi. Ishning maqsadi umumiy fortepianoni faqat texnik ijro ko'nikmasini shakllantiruvchi yordamchi fan sifatida emas, balki kompozitorlik tafakkuri, ichki eshituv, intonatsion idrok, lad-garmonik tahlil, shaklni his etish va milliy musiqiy obrazlarni zamonaviy kompozitsion fikrga aylantirishga xizmat qiladigan integrativ maydon sifatida asoslashdan iborat. Maqolada umumiy fortepiano darslarining kompozitorlik ta'limidagi vazifalari, xususan, kuy materialini klaviaturada tekshirish, maqom va xalq kuylarining intonatsion xususiyatlarini fortepiano vositasida tahlil qilish, milliy ohangni garmonik va fakturaviy jihatdan sinab ko'rish, improvizatsiya va kichik kompozitsiya elementlari orqali ijodiy fikrlashni faollashtirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, o'zbek milliy musiqamerosi — maqom, Farg'ona–Toshkent yo'llari, xalq kuylarini notaga tushirish va bastakorlik amaliyoti — kompozitor tayyorlash jarayonida fortepiano fanining mazmunini boyituvchi asosiy manbalardan biri ekani ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijasida umumiy fortepiano kompozitorlik ta'limida nazariya, eshituv, tahlil va ijodiy amaliyotni birlashtiruvchi markaziy bo'g'in ekani, ayniqsa o'zbek milliy musiqamateriali bilan ishlanganda uning metodik salohiyati yanada ortishi xulosalanadi.

Kirish. Kompozitorlik ta'limida umumiy fortepiano ko'pincha qo'shimcha yoki yordamchi fan sifatida talqin qilinadi. Biroq musiqiy tafakkur shakllanishi nuqtai nazaridan qaralganda, aynan fortepiano nazariy bilimni tovushga aylantiruvchi, intonatsiyani eshituviy nazoratga olib chiquvchi, shakl va fakturani bir vaqtning o'zida ko'rsatib beruvchi universal

maydon hisoblanadi. G. Neygauz musiqiy asarning badiiy obrazi aslida “musiqaning o‘zi”, ya’ni jonli tovushiy materiya, musiqiy nutq, melodiya, garmoniya, polifoniya va formal qurilish birligi ekanini ta’kidlaydi [1, 15-b.]. Shu bois kompozitorlik ta’limida fortepiano nafaqat chalish, balki musiqiy fikrni anglash vositasidir. A. Popova ham fortepiano orqali turli davr va uslublarga mansub musiqiy nutq qonuniyatlarini o‘zlashtirish musiqiy tafakkur rivojining zarur sharti ekanini qayd etadi [2, 2-b.].

O‘zbek milliy musiqa tafakkuri bilan ishlashda bu masala yanada dolzarb tus oladi. Chunki maqom, xalq kuychanligi, Farg‘ona–Toshkent yo‘llari va bastakorlik an’anasi birgina ohang bilan emas, balki parda tuzilishi, usul, shakl, avj rivoji, ijro uslubi va badiiy ruh bilan birgalikda mavjud bo‘ladi. B.X. Madrimov maqomlarning negizida parda tuzilishi, vazn va shakl qonuniyatlari birligi yotishini, har bir maqomning mezoni ohang-kuy va usul tartibi bilan belgilanishini ko‘rsatadi [4, 49-50-b.]. Demak, kompozitor uchun o‘zbek milliy musiqa materiali bilan ishlash faqat folklor namunalarini bilish emas, balki ularning ichki tizimini eshitish va tahlil qila olishni ham talab qiladi. Bu esa umumiy fortepiano kursining mazmunini milliy asosda qayta talqin qilish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Maqolaning maqsadi kompozitorlik ta’limida umumiy fortepiano fanining o‘zbek milliy musiqa tafakkuri bilan integratsiyasini nazariy, metodik va ijro-amaliy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqot materiali sifatida fortepiano pedagogikasi, musiqiy tafakkur nazariyasi, o‘zbek musiqa tarixi, maqom tizimi va zamonaviy fortepiano metodikasiga oid manbalar tanlandi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tahliliy-sintetik, musiqashunoslikka xos interpretatsion va pedagogik kuzatuv metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy asoslari. Umumiy fortepiano kompozitorlik ta’limida, avvalo, musiqiy tafakkurning intellektual maydoni sifatida namoyon bo‘ladi. Neygauz fortepiano ijrosida tovush ustida ishlashni birinchi va eng muhim vazifa deb biladi, chunki “tovush musiqaning materiyasi”dir [1, 55-b.]. Bu fikr kompozitorlik ta’limi uchun ayniqsa muhim: kompozitor yozayotgan materialining faktik eshilitish xususiyatlarini, dinamik og‘irligini, registr bo‘linishini va ichki muvozanatini aynan klaviatura tajribasi orqali aniq his qiladi. Forteplano yordamida kuy chizig‘i, garmonik tayanch, interval og‘irligi va shakliy taranglik bir nuqtada jamlanadi. Shuning uchun umumiy fortepiano kursi kompozitorlik yo‘nalishida “texnika fani”dan ko‘ra “eshituv-tahlil laboratoriyasi” sifatida tushunilishi maqsadga muvofiqdir.

Musiqiy tafakkur va kompozitorlik tafakkuri o‘rtasidagi bog‘lanishning eng muhim nuqtasi intonatsiya masalasidir. B.V. Asafyevning “musiqa — intonatsiya” formulasi musiqiy mazmuni tovushiy harakat, ohangiy energiya va semantik ifoda birligi sifatida talqin qilishga imkon beradi [3, 5-b.]. Popova ham musiqiy tafakkur ildizi intonatsiyani idrok etishdan boshlanishini, melodik, garmonik va ritmik jarayonlarning barchasi intonatsion asosga ega ekanini qayd etadi [2, 2-b.]. Bu jihatdan kompozitorlik ta’limida umumiy fortepiano milliy intonatsiya bilan professional yozuv o‘rtasida vositachilik qiladi: talaba maqom yoki xalq kuyidan olingan intonatsion yadroni fortepianoda qayta eshitadi,

uning rivoj imkoniyatlarini sinaydi, variantlaydi va zamonaviy kompozitsion fikrga aylantiradi. [Piano](#)

Fortepiano nazariy bilimni amaliy idrokka aylantiradigan vosita sifatida ham muhim. Umumiy fortepiano darsida lad, garmoniya, intervalika, shakl, kadensiya, polifonik qatlam, frazirovka va ritm real tovush muhitida tekshiriladi. Popova bolaga juda erta bosqichdan “musiqa qanday tuzilganini” ko‘rsatish, qiyoslash, tahlil qilish va tuzilmani ko‘ra olish ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligini yozadi [2, 4-b.]. Kompozitorlik ta‘limi uchun bu talab yanada keskin: notadagi materialni yozishdan oldin uni eshitish, eshitilgan materialni shaklan anglash, anglangan shaklni esa yozuvga aylantirish kerak bo‘ladi. Shu ma‘noda umumiy fortepiano kompozitorlikda yozishdan oldingi ichki tayyorgarlikning ajralmas qismidir.

O‘zbek milliy musiqa tafakkuri va umumiy fortepiano integratsiyasi. O‘zbek milliy musiqa tafakkurini kompozitorlik ta‘limiga singdirishda umumiy fortepiano maxsus vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Buning sababi shundaki, maqom va an‘anaviy kuy tizimlari bir tomondan og‘zaki an‘anaga tayanadi, ikkinchi tomondan esa ularning ichki qurilishi qat‘iy va murakkabdir. Madrimovning ko‘rsatishicha, maqomlarda parda uyushmasi, ohang-kuy, vazn-usul tartibi va shakl qonuniyatlari birgalikda ishlaydi [4, 49-50-b.]. Demak, kompozitorlik ta‘limida umumiy fortepiano kursi talabanning milliy materialni tasodifiy folklor namunasi sifatida emas, balki tuzilmali musiqiy tafakkur mahsuli sifatida idrok etishiga yordam berishi kerak. Bu erda fortepiano maqomning tembrini emas, balki uning intonatsion-logik asosini ko‘rsatadi.

Farg‘ona–Toshkent maqom yo‘llari va bastakorlik an‘anasi bilan bog‘liq misollar ham buni tasdiqlaydi. Madrimov Farg‘ona–Toshkent maqomlari an‘anaviy ijrochilikda keng tarqalganini, o‘zbek bastakorlari tomonidan ularning yangi variantlari yaratilganini, jumladan ayrim Chorgoh va Dugoh-Xusayniy variantlari Yunus Rajabiy ijodiga mansubligini qayd etadi [4, 59-b.]. Bu ma‘lumot umumiy fortepiano kursi uchun juda muhim metodik xulosani beradi: talaba maqom va bastakorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni fortepianoda variantlash, qayta tuzish, intonatsion rivoj va usul almashtirish mashqlari orqali amalda his qilishi mumkin. Ya‘ni, umumiy fortepiano milliy musiqiy manba bilan mualliflik fikri o‘rtasidagi “oraliq makon”ga aylanadi.

O‘zbek professional musiqa maktabi shakllanishida xalq kuylarini notaga tushirish va ularni ilmiy muomalaga kiritish jarayoni alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Madrimov Samarqanddagi o‘zbek musiqa va xoreografiya institutida 1928–1932-yillar davomida besh yuzdan ortiq xalq ijodi namunasi yozib olinganini, xalq kuylarini garmoniyalash va nashrga tayyorlash ishlari olib borilganini ko‘rsatadi [4, 71-b.]. Bu tarixiy tajriba bugungi kompozitorlik ta‘limi uchun ham metodik ahamiyatga ega: umumiy fortepiano darslarida xalq kuylarini notaga olish, ularni fortepiano jo‘rligida sinash, garmonik variantlar yaratish va kichik formalarga joylashtirish kabi topshiriqlar kompozitorlik ko‘nikmasini milliy

zamin bilan bog'laydi. Fortepiano bu jarayonda xalq kuyining tabiiyligini buzmasdan, uning tarkibiy imkoniyatlarini ochib beruvchi analitik vosita bo'lishi kerak.

O'zbek zamonaviy kompozitorlari ijodida fortepiano bilan milliy materialning integratsiyasi yanada aniq ko'rinadi. Madrimov R. Abdullayev ijodida fortepianoning nisbatan ustuvor o'rin tutishini, kompozitor uning ifoda imkoniyatlarini yaxshi bilgani sababli fortepiano uchun qator yorqin asarlar yaratganini, bu asarlarda aleatorika, sonorika va koloristika kabi zamonaviy bastakorlik xati usullari milliylik ildizlari bilan bog'liq holda taqdim etilganini yozadi [4, 100-101-b.]. Bu kompozitorlik ta'limi uchun bevosita metodik namuna bo'la oladi: umumiy fortepiano darslarida milliy ohangni faqat "jo'r qo'yish" darajasida emas, balki zamonaviy faktura, ritm, sonor qatlam, registr kontrasti va shakliy echim bilan ishlash obyektiga aylantirish mumkin.

Umumiy fortepiano kursining metodik modeli. Kompozitorlik yo'nalishidagi umumiy fortepiano kursi oddiy repertuar o'zlashtirish modeli bilan cheklanib qolmasligi kerak. U bir vaqtning o'zida eshituviy, tahliliy va ijodiy vazifalarni bajarishi zarur. Navro'zovanning ta'kidlashicha, fortepiano ijrochiligida badiiy tafakkur emotsional idrok, obrazli fikrlash, estetik sezgi va analitik yondashuv birligida shakllanadi; bunda integrativ yondashuv, ya'ni musiqa nazariyasi, adabiyot va san'at tarixini birlashtirib tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi [5, 489-490-b.]. Kompozitorlik ta'limi uchun bu fikrni yanada kengaytirish mumkin: fortepiano darsida biror maqom sho'basi, xalq kuyining intonatsion yadrosi yoki bastakorlik namunasini o'rganishda talaba shu materialning tarixi, poetik manbasi, usul tabiatini va formal qurilishini birgalikda anglab borishi kerak.

Bunday kursda asosiy metodik yo'nalishlardan biri analitik chalish usulidir. Talaba asarni to'liq mexanik takrorlash o'rniga uning intonatsion tayanchlarini, fraza chegaralarini, kadensiya nuqtalarini, garmonik og'irlik markazlarini va fakturaviy qatlamlarini ajratib chalishi zarur. Popova qiyoslash, identifikatsiya va differensial eshitish usullari, shuningdek matnning ayrim detallari bilan alohida ishlashni musiqiy tafakkurni faollashtiruvchi usullar sifatida tavsiya qiladi [2, 4-b.]. Kompozitorlik ta'limida bu usullar milliy musiqa materiali bilan qo'llanganda, talaba bir xil ohangning turli usul, registr, garmonik tayanch va fakturadagi ma'no o'zgarishini anglay boshlaydi.

Ikkinchi metodik yo'nalish — improvizatsiya va kichik kompozitsiya topshiriqlari. Zamonaviy fortepiano metodikasi fortepiano darslarini ijodkorlikni rivojlantiruvchi vazifalar bilan boyitishni tavsiya qiladi. Eraliyeva improvizatsiya mashqlari, obraziy topshiriqlar, ritmik improvizatsiya, kichik kompozitsiya yaratish va melodik improvizatsiya kabi usullar o'quvchida ijodiy fikrlash, musiqiy tahlil va badiiy idrokni kuchaytirishini ko'rsatadi [6, 848-b.]. Kompozitorlik yo'nalishida bu yondashuv ayniqsa samarali: talaba maqom intonatsiyasidan qisqa prelyudiya yaratishi, xalq kuyidan fortepiano eskizi tuzishi, berilgan usul asosida mavzu rivojlantirishi yoki milliy lad tuzilmasidan foydalangan holda zamonaviy miniatyura yozishi mumkin. Umumiy fortepiano shu tarzda kompozitsiya mashg'ulotlari bilan bevosita tutashadi.

Uchinchi yo‘nalish — raqamli va zamonaviy pedagogik vositalardan foydalanishdir. Eraliyeva innovatsion yondashuvlar fortepiano darslarida o‘quvchining musiqiy tafakkurini kengaytirishi, texnik bazasini mustahkamlashi va mustaqil ishlashini rag‘batlantirishini ta’kidlaydi [6, 851-b.]. Kompozitorlik ta’limida bu tamoyilni audioyozuv, nota muharriri, MIDI-klaviatura, harmonik tahlil dasturlari, temp va faktura variantlarini tinglab solishtirish, o‘z ijrosini yozib tahlil qilish kabi shakllarda qo‘llash mumkin. Bu vositalar umumiy fortepiano kursini an’anaviy darsdan ko‘ra musiqiy tadqiqot ustaxonasiga yaqinlashtiradi. Ayniqsa milliy material bilan ishlaganda turli variantlarni tez eshitish imkoniyati kompozitor fikrining shakllanishini sezilarli darajada jadallashtiradi.

Muhokama. Kompozitorlik ta’limida umumiy fortepianoning o‘rni haqida so‘z borganda, uni maxsus fortepiano yoki professional pianinochi tayyorlash kursi bilan aynanlashtirish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bu erda asosiy vazifa virtuoz ijro emas, balki musiqiy fikrni klaviatura yordamida anglash va tekshirishdir. Shuning uchun kurs mazmunida texnik mashqlar maqsad emas, vosita bo‘lishi lozim. Neygauzning badiiy obraz va tovushning musiqiy mohiyati haqidagi qarashlari [1, 15-b.; 1, 55-b.], Popovaning musiqiy tafakkur, intonatsiya va analitik eshituv haqidagi mulohazalari kompozitorlik yo‘nalishida umumiy fortepianoni “fikrlashning cholg‘usi” sifatida talqin qilishga ilmiy asos beradi.

O‘zbek milliy musiqa tafakkuri bilan bog‘liq holda esa umumiy fortepiano kursining vazifasi yanada kengayadi. U talabaning maqom, xalq kuychanligi va bastakorlik an‘anasini tashqi rang-baranglik sifatida emas, balki intonatsion-mantiqiy tizim sifatida anglashiga yordam beradi. Maqomning parda, usul va shakl birligiga tayanishi [4, 49-50-b.], Farg‘ona–Toshkent yo‘llarining bastakorlar tomonidan yangi variantlarda rivojlantirilgani [4, 59-b.], xalq kuylarini notaga olish va garmoniyalash tajribasi [4, 71-b.], shuningdek zamonaviy o‘zbek kompozitorlari fortepiano asarlarida milliylik va zamonaviy kompozitsion texnikaning uyg‘unlashuvi [4, 100-101-b.] umumiy fortepianoni kompozitor uchun milliy musiqiy tafakkurni amaliy shakllantirish maydoni sifatida ko‘rsatadi.

Zamonaviy talablardan kelib chiqib, kompozitorlik ta’limidagi umumiy fortepiano kursi uch tayanch blok asosida qayta ko‘rilishi maqsadga muvofiq: birinchisi — eshituv va tahlil, ikkinchisi — milliy material bilan ijodiy ishlash, uchinchisi — improvizatsiya va qisqa kompozitsiya amaliyoti. Bunday yondashuv fortepianoni “nota chalish fani” emas, balki “kompozitorlik tafakkurini tashkil etish vositasi”ga aylantiradi. Aynan shu nuqtada umumiy fortepiano kompozitorlik, musiqiy nazariya, maqomshunoslik va zamonaviy texnologiyalar bilan kesishuvchi integrativ fan maqomiga ko‘tariladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kompozitorlik ta’limida umumiy fortepiano fanini o‘zbek milliy musiqa tafakkuri bilan integratsiyada olib borish ilmiy va metodik jihatdan asosli yondashuvdir. Umumiy fortepiano talabaning ichki eshituvini faollashtiradi, intonatsion idrokini boyitadi, garmonik va shakliy fikrlashini mustahkamlaydi, milliy kuy materialini zamonaviy kompozitsion tafakkurga aylantirish imkonini beradi. Ayniqsa maqom va xalq kuylarining struktur tabiatini fortepianoda

tekshirish, variantlash, fakturaviy va ritmik qayta ishlash kompozitorlik tayyorgarligini chuqurlashtiradiro

Shuningdek, tarixiy tajriba va zamonaviy metodik izlanishlar umumiy fortepiano kursini improvizatsiya, kichik kompozitsiya, analitik chalish, o‘z ijrosini yozib tahlil qilish, milliy intonatsiyadan mustaqil material yaratish kabi topshiriqlar bilan boyitish lozimligini ko‘rsatadi. Ana shundagina umumiy fortepiano kompozitorlik ta‘limida haqiqiy integrativ markazga aylanadi: u nazariyani amaliyotga, milliy merosni zamonaviy ijodga, eshituvni yozuvga, ijroni esa tahliliy tafakkurga bog‘laydi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Нейгауз Г.Г. Об искусстве фортепианной игры: Записки педагога. Москва: Музыка, 1988.
2. Попова А.В. Развитие музыкального мышления юного пианиста. Методической сообщенные. Перм, 2018.
3. Асафев Б.В. Музыкальная форма как процесс. Ленинград: Музыка, 1971.
4. Madrimov B.X. O‘zbek musiqa tarixi. Toshkent: Barkamol fayz media, 2018.
5. Navro‘zova N.I. Forteplano ijrochiligida badiiy tafakkurni shakllantirishning metodologik asoslari. Science and Education Scientific Journal. 2025. 6-jild, 10-son.
6. Eraliyeva F.E. Pedagogik innovatsiyalar yordamida fortepiano darslarini boshqarish. Science and Education Scientific Journal. 2025. 6-jild, 11-son.